



O'ZBEK TILIDA O'Z QATLAM SOTSIOLINGVISTIK TERMINLARI

Narzulayeva Go'zalxon Mashrabjon qizi
Guliston davlat universiteti 2-kurs magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15071981>

ARTICLE INFO

Received: 11th March 2025
Accepted: 18th March 2025
Published: 23rd March 2025

KEYWORDS

antroposentrik tilshunoslik, terminologiya, sotsiologiya, o'z qatlam, komponent tahlil.

ABSTRACT

Mazkur maqolada o'zbek sotsiologiya terminlarining asosiy tarkibiy qatlami – o'z qatlam terminlari tarkibiy-struktur tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu terminlarning lingvistik xususiyatlari, shakllanish yo'llari va o'zbek tilidagi o'rni tahlil qilinib, ma'noviy guruhlariga ajratilgan. Bu tahlillar terminologik tizimda o'zbek sotsiologiya terminlarining o'rnini belgilashda, xususan, terminlarni aniq va izchil tasnif etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

KIRISH

Har qanday fan sohasi rivojlanishida o'z terminologik bazasiga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki, terminlar har bir soha uchun poydevor vazifasini bajaradi. Rus faylasufi P. A. Florenskiy terminlarning fandagi o'rnini quyidagicha izohlagan: "Fanning mohiyati terminologiyani tuzish, aniqrog'i, joy-joyiga qo'yishdan iborat... Terminlar hayoti fan tarixining o'zidir"¹. Tilshunoslikning jamiyat va til munosabatlarini o'rganadigan sohasi – sotsiologiya fani ham o'zining ilmiy-nazariy bazasini mustahkamlashda terminologik birliklarning aniqligi, tizimliliigi va dinamik harakatliliigi bilan ajralib turadi. Sotsiologiya atamalarini shakllantirish jarayoni til va jamiyatning o'zaro ta'siriga bog'liq holda kechadi. O'zbek tilshunosligi va ayniqsa, o'zbek sotsiologiyasi mustaqil fan sifatida shakllanayotgan davrda uning terminologiyasi turli ichki va tashqi omillar ta'sirida rivojlanib kelmoqda. Mazkur terminlarning shakllanishida milliy tilning ichki manbalari muhim o'rin tutadi. Terminlarning tahlili ularning lingvistik va etimologik xususiyatlarini ochib berish bilan birga, ularning milliy til tizimidagi o'rnini aniqlashga ham yordam beradi. Shuningdek, ushbu maqolada sotsiologiya terminlar boshqa tillardagi atamalar bilan qiyosiy tahlil qilinadi, ya'ni komparativ tadqiqot usuli asosida ularning boshqa tillardagi muqobillari bilan bog'liqligi va farqlari yoritiladi. Bu esa, o'zbek sotsiologiya terminologiyasining shakllanish jarayonidagi o'ziga xos jihatlarni aniqroq ochib berish imkonini beradi.

MUHOKAMA

Sotsiologiya terminologiya jamiyat va tilning o'zaro munosabatlarini aks ettiruvchi ilmiy atamalar tizimidir. O'z qatlam terminlari tilning imkoniyatlarini ochib berishi, jamiyat uchun tushunarli va aniq bo'lishi bilan ahamiyatlidir. Ushbu terminlar ijtimoiy, siyosiy, ilmiy omillar ta'sirida shakllangan bo'lib, ular doimiy, dinamik tarzda rivojlanib turadi. Jumladan, jamiyatning rivojlanishi, undagi turli ijtimoiy-siyosiy voqealar sotsiologiya terminlar tizimini boyitadi. Natijada yangi terminlar paydo bo'ladi. Masalan, muayyan insonlar

¹ Ahmad Ishayev. O'zbek dialektal leksikografiyasi. Toshkent, "Fan" nashriyoti. 2013. B 24.

jamoasining hududiy-rasmiy tuzilish shakli takomillashishi natijasida bir qancha terminlar shakllangan: *urug' tili, qabila tili, elat tili, xalq tili, rasmiy til, hududiy rasmiy til va h.*

O'zbek tilida sotsiolingvistik terminlarning katta qismi milliy til imkoniyatlaridan kelib chiqqan bo'lib, ular xalq tili va adabiy til me'yorlariga asoslanadi. O'z qatlamga o'zbek tilining o'ziniki bo'lgan, shuningdek turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan so'zlar kiradi. O'zbek tili lug'at sostavida turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan so'zlar anchagina qismni tashkil etadi². Bunday terminlar ko'pincha tarixiy ildizga ega bo'lib, jamiyatning turli bosqichlarida shakllanib kelgan. O'z qatlam terminlari o'zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida shakllangan bo'lib, ular milliy terminologiyaning asosini tashkil etadi. O'z qatlam terminlariga quyidagilar kiradi: *adabiy til, aloqaviy tillar, ayollar nutqi, dag'al so'zlar, davlat tili, diniy tillar, elat tili, erkaklar nutqi, faol ikki tillilik, faol lug'at, hududiy til, ichki ta'sir birliklari, ichki til siyosati, ijtimoiy lahjalar, ijtimoiy maqom, ijtimoiy omil, kelajak tili, ko'p tillilik, muloqot, lisoniy hamjamiyat, lisoniy ijtimoiylashuv, lisoniy vaziyat, mahalliy til, maqsadli ikki tillilik, milliy til, bir tillilik, muhit, muloqot mavzusi, nutqning ijtimoiy xoslanishi, oddiy so'zlashuv tili, oilaviy ikki tillilik, ona tili, orttirilgan maqom, qabila tili, rasmiy til, so'zlashuv tili, sun'iy til, ta'sir birliklari, tashqi til siyosati, til, til aralashuvi, til holati, til jamoalari, til maqomi, til me'yori, til qo'llash sohasi, til siyosati, til uyushmasi, til vaziyati.*

O'zbek sotsiolingvistik terminlari milliy tilning ichki imkoniyatlari asosida shakllanadi. Bu jarayonda chet tillardan olingan terminlarni o'zbekchalashtirish, yondosh fanlardan termin o'zlashtirish va oddiy so'zlashuvdagi so'zlarning ilmiy termin sifatida shakllanishi muhim o'rin tutadi. Ushbu usullar terminologik tizimni milliy til qoidalariga moslashtirish, uni yanada izchil va tushunarli qilishga xizmat qiladi. Quyida o'z qatlam terminlarining shakllanishi va asosiy yo'nalishlarini ko'rib chiqamiz:

1. Chet tillardan olingan terminlarni o'zbekchalashtirish. Sotsiolingvistika fanining xorijda yuza kelishi va taraqqiy etishi davomida uning nazariyasi bilan birga terminlari ham ilm-fanimizga kirib kelgan. Bu jarayonda ba'zi terminlarning milliy muqobili yo to'liq tarjima qilinadi, yo o'zbek tilining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib yangi variantlar ishlab chiqiladi:

O'zbekcha	Inglizcha	Ruscha
Ayollar nutqi	Women's speech	Женская речь
Davlat tili	State language	Государственный язык
Diniy tillar	Religious languages	Религиозные языки
Erkaklar nutqi	Men's speech	Мужская речь
Faol ikki tillilik	Active bilingualism	Активный билингвизм
Faol lug'at	Active vocabulary	Активный словарь
Hududiy til	Regional language	Региональный язык
Ichki til siyosati	Internal language policy	Внутренняя языковая политика
Ijtimoiy lahjalar	Social dialects	Социальные диалекты
Ijtimoiy maqom	Social status	Социальный статус

² Sh. Shoabdurahmonov, M. Asqarova, A. Hojiyev va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 1980. – B.121.

Ko'p tillilik	Multilingualism Polylingualism	/	Многоязычие Полилингвизм	/
Muloqot	Communication		Коммуникация Общение	/
Lisoniy hamjamiyat	Linguistic community		Языковое сообщество	
Lisoniy ijtimoiylashuv	Linguistic socialization		Языковая социализация	
Lisoniy vaziyat	Linguistic situation		Языковая ситуация	
Mahalliy til	Local language		Местный язык	
Milliy til	National language		Национальный язык	
Bir tillilik	Monolingualism		Монолингвизм	
Nutqning ijtimoiy xoslanishi	Social differentiation of speech		Социальная дифференциация речи	
Ona tili	Mother tongue / Native language		Родной язык	
Rasmiy til	Official language		Официальный язык	
Til aralashuvi	Language interference		Языковая интерференция	
Til jamoalari	Language communities		Языковые сообщества	
Til maqomi	Language status		Статус языка	
Til me'ori	Language norm		Языковая норма	
Til siyosati	Language policy		Языковая политика	
Til vaziyati	Language situation		Языковая ситуация	

O'zbek terminologiyasi tizimida xorijiy tillarga taalluqli tushunchalarni o'z ichki imkoniyatlari asosida ifodalash tamoyili yetakchilik qilmoqda. Bunday jarayon paytida chetdan kelayotgan o'zlashmalarning bir qismi o'zbekcha mutanosiblari bilan almashtiriladi yoki tarjima (kalka) qilinadi³. Aslida kalkalangan terminlar o'zlashma qatlamga mansub bo'lsa-da, sotsiolingvistik tizimdagi terminlar kalkalanishi tilning ichki imkoniyatlari asosida o'ziga xos holda amalga oshgan. Shunga muvofiq, bu turdagi ayrim terminlarni o'z qatlam terminlari sifatida tasnif etdik. Bu holatda terminning yanada kengroq ma'no kasb etgan holda yasalganligi, yasalish jarayonida o'zbek tilining formalaridan foydalanganligi asos qilib olindi.

2. Yondosh fanlardan termin o'zlashtirish orqali. Dastlab tilshunoslikning falsafa fani tarkibidan ajralib chiqib mustaqil fan sohasiga aylanganligi umumlingvistik terminlarda falsafaga oid ayrim terminlar mavjudligini ko'rsatadi. Shunga qaramasdan, umumlingvistik terminlar tizimi sof lingvistik terminlar salmoqli o'ringa ega. Antroposentrik tilshunoslik

³ Dadaboyev. H. O'zbek terminologiyasi. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. B. 50.

terminlarida esa soha yo'nalishi qanday fan bilan integratsiyaga kirishganiga ko'ra qurama terminologiya hosil qilgan. Demak, antroposentrik tilshunoslik terminlari, xususan, uning tarkibidagi sotsiolingvistik terminlarning shakllanishidagi dastlabki jarayon o'ziga yondosh bo'lgan fan sohasidan termin o'zlashtirish ekan. Sotsiolingvistika sotsiologiya va lingvistika fanlari integratsiyasiga ega va sotsiologik terminlar ham bu fan shakllanishida poydevor vazifasini bajargan. Misol uchun, *jamiyat, sotsium, ijtimoiy guruhlar, ijtimoiy toifa, ijtimoiylashuv, ijtimoiy jins, ijtimoiy maqom, ijtimoiy omillar, ijtimoiy to'siq, bazis, elat, xalq, etnik uyushma, etnografik guruh, etnos va b.*

3. So'zlashuv tilidan sotsiolingvistik tizimiga ko'chgan terminlar. Kundalik nutqda ishlatiladigan ko'plab so'zlar vaqt o'tishi bilan ilmiy terminologiyaning bir qismiga aylanadi. Ularning ma'nosi torayib, ilmiy kontekstdagi qo'llanilishi aniqlashadi. Ayniqsa, sotsiolingvistika sohasida bu jarayon faol kechadi, chunki til va jamiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ushbu terminlarning shakllanishiga sabab bo'ladi. Masalan:

Aloqa – odatiy muloqot, xabar uzatish yoki insonlar orasidagi bog'lanish ma'nosida ishlatiladi. Lekin *aloqaviy tillar* termini faqat sotsiolingvistikada turli tillarning o'zaro ta'sirini ifodalash uchun ishlatiladi.

Nutq – oddiy holatda insonning gapirishi, fikr bildirish jarayoni, lekin *erkaklar nutqi va ayollar nutqi* kabi terminlar sotsiolingvistik jihatdan genderga bog'liq nutq xususiyatlarini ifodalaydi.

So'zlashuv – kundalik hayotda oddiy gaplashish jarayoni, lekin sotsiolingvistika doirasida *so'zlashuv tili* – rasmiy bo'lmagan, og'zaki nutq uslubini anglatadi.

Maqom – inson yoki narsaning jamiyatdagi o'rni sifatida tushuniladi. Lekin sotsiolingvistikada *ijtimoiy maqom, til maqomi* kabi tushunchalar mavjud.

Muhit – kundalik hayotda tabiat yoki atrof tushunchasi bilan bog'liq, lekin *til muhiti* faqat sotsiolingvistik kontekstda ishlatiladi.

Uyushma – umumiy ma'noda odamlar yoki tashkilotlarning birlashmasi, lekin *til uyushmasi* termin sifatida faqat sotsiolingvistikada foydalaniladi.

Lahja – fonetik yoki leksik o'ziga xosliklarga ega bo'lgan nutq shakli sifatida lingvistikada ishlatiladi. Lekin *ijtimoiy lahjalar* termini sotsiolingvistikada ijtimoiy guruhlarining til xususiyatlariga asoslangan bo'lib, professional, yosh, gender va boshqa omillar asosida shakllanadi.

Siyosat – umumiy davlat boshqaruvi yoki ijtimoiy jarayonlarni ifodalaydi, lekin *til siyosati* – tilning rasmiy maqomi, davlat miqyosida tartibga solinishi bilan bog'liq maxsus termin sifatida ishlatiladi.

Aralashuv – umumiy ma'noda har qanday ikki jarayon yoki subyektning bir-biriga ta'sirini bildiradi. Lekin *til aralashuvi* sotsiolingvistikada ikki yoki undan ortiq tillarning o'zaro ta'sir natijasida bir-biriga leksik, grammatik yoki fonetik jihatdan kirib borishini ifodalovchi termin hisoblanadi.

Ko'p tillilik – avvallari shaxsning bir nechta til bilishi oddiy holat sifatida qabul qilingan bo'lsa, bugungi kunda bu sotsiolingvistik atama sifatida jamiyatda turli tillarning birgalikda qo'llanilishini ifodalaydi.

Ona tili – bu atama kundalik hayotda ham ishlatiladi, lekin sotsiolingvistikada ona tili shaxsning birinchi o'rgangan va asosiy aloqa vositasi bo'lgan tili sifatida belgilangan.

Ikki tillilik – oldin oddiy holat sifatida qabul qilingan bo'lsa, hozir *faol ikki tillilik, maqsadli ikki tillilik, oilaviy ikki tillilik* kabi aniq terminlar shakllangan.

Davlat tili – avval shunchaki hukumat ishlatadigan til sifatida tushunilgan bo'lsa, bugungi kunda uning rasmiy maqomi, qonuniy asoslari, milliy o'ziga xosligi sotsiolingvistika nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi.

Hududiy til – ilgari ma'lum bir joyda ko'proq ishlatiladigan til deb qaralsa, hozir bu atama maxsus huquqiy maqomga ega bo'lgan, rasmiy til bilan yonma-yon qo'llaniluvchi til sifatida aniqlanadi.

Elat tili – avval shunchaki kichik guruhlarning ishlatadigan tili deb qaralgan bo'lsa, bugungi kunda sotsiologiyistik termin bo'lib, ma'lum elat yoki millatning o'ziga xos tilini bildiradi.

Ushbu jarayon natijasida sotsiologiyistik atamalar tizimi jamiyatdagi til o'zgarishlari va ijtimoiy munosabatlarga mos ravishda kengayib boradi.

Mazkur terminlar komponent tahliliga ko'ra murakkab tuzilishga ega. Sotsiologiyistik terminlar tizimida o'z qalam terminlarning birikma holatida kelishi ko'p uchraydi. Quyida o'z qatlam terminlarning komponent tahlili ko'rib chiqiladi:

Bir komponentli terminlar: *elat, xalq, hayotiylik, ijtimoiylashuv, jamiyat, me'yor, muhit, nutq, murakkablashuv, olinma, soddalahuv, tarixiylik, til va b.*

Ikki komponentli terminlar: *adabiy til, aloqaviy tillar, ayollar nutqi, dag'al so'zlar, davlat tili, diniy tillar, elat tili, erkaklar nutqi, etnik uyushma, faol lug'at, haqorat so'zlar, ijtimoiy lahjalar, ijtimoiy maqom, ijtimoiy omil, ijtimoiy jins, ikki tillilik, kelajak tili, ko'p tillilik, lisoniy hamjamiyat, lisoniy ijtimoiylashuv, lisoniy vaziyat, lug'aviy o'zlashmalar, mahalliy til, mavhum tafakkur, milliy til, bir tillilik, ona tili, qabila tili, rasmiy til, so'zlashuv tili, ta'sir birliklari, tajribaviy sotsiologiyistik, til aralashuvi, til holati, til jamoalari, til kontakti, til maqomi, til me'yor, til siyosati, til uyushmasi, til vaziyati va b.*

Uch komponentli terminlar: *faol ikki tillilik, nofaol ikki tillilik, ko'p ishlatiluvchi so'zlar, kam ishlatiluvchi lug'at, ichki ta'sir birliklari, tashqi ta'sir birliklari, ichki til siyosati, tashqi til siyosati, ijtimoiy shartlangan omillar, me'yoriy ikki tillilik, nome'yoriy ikki tillilik, muvofiqlashgan lisoniy vaziyat, muvofiqlashmagan lisoniy vaziyat, nutqning ijtimoiy xoslanishi, oddiy so'zlashuv tili, oilaviy ikki tillilik, tabiiy ikki tillilik, qayta bo'linish hodisasi, til qo'llash sohasi va b.*

To'rt va undan ortiq komponentli terminlar: *til o'zgarishining tashqi omillari, kundalik odatdagi ikki tillilik, bir tomonlama me'yoriy ikki tillilik, ikki tomonlama me'yoriy ikki tillilik va b.*

Mazkur terminlarining shakllanishida asosan kompozitsiya usuli, qisman affiksatsiya usullari muhim rol o'ynaganligini ko'rishimiz mumkin.

O'z qatlam terminlari quyidagi afzalliklarga ega:

- tushunarli va milliy xususiyatga ega;
- keng omma uchun tushunarlilik;
- barqarorlik va izchillik
- o'zbek tilining mustaqil terminologik tizimini shakllantirishi;
- milliy terminlarni yaratish orqali o'zbek tili boshqa tillardan mustaqil ravishda ilmiy tilda o'z ifodasini topishi.

O'z qatlam terminlari bir qancha ma'noviy guruhlarga ajraladi. Bu jarayon lingvistik tizimlilikni ta'minlash, tahliliy yondashuvni shakllantirish va sotsiologiyistik tadqiqotlarda ilmiy asos yaratishga xizmat qiladi. Ular quyidagilar:

1. Til va uning jamiyatdagi o'rni bilan bog'liq terminlar. Bu guruhga jamiyatda tilning tutgan o'rni, uning maqomi va funksiyalari bilan bog'liq terminlar kiradi:

- a) tilning huquqiy va ijtimoiy maqomi: *davlat tili, milliy til, rasmiy til, diniy tillar, elat tili, qabila tili, urug' tili;*
- b) tilning davlat siyosatidagi ahamiyati va rivojlanishi: *til maqomi, til me'yor, til siyosati, ichki til siyosati, tashqi til siyosati;*
- c) jamiyatda tilning tarqalishi va ahvoli: *til holati, til jamoalari, til vaziyati, til uyushmasi, ijtimoiy omil, ijtimoiy maqom;*
- d) tilning ijtimoiy guruhlarda o'rtasidagi ta'siri va dinamikasi: *til aralashuvi, lisoniy vaziyat, lisoniy hamjamiyat, lisoniy ijtimoiylashuv.*

2. Ikkitillilik va ko'ptillilik bilan bog'liq terminlar. Sotsiologiyistikaning muhim jihatlardan biri bo'lgan ikki va ko'ptillilik bilan bog'liq terminlar: *bir tillilik, ko'p tillilik, faol ikki tillilik, nofaol ikki tillilik, me'yoriy ikki tillilik, nome'yoriy ikki tillilik, kundalik odatdagi ikki tillilik, oilaviy ikki tillilik, maqsadli ikki tillilik, bir tomonlama me'yoriy ikki tillilik, ikki tomonlama me'yoriy ikki tillilik va b.*

3. Nutq, nutq madaniyati va ijtimoiy lahjalar bilan bog'liq terminlar. Nutq bilan bog'liq terminlar jamiyatdagi nutqiy jarayonlarni tahlil qilishda muhim rol o'ynaydi:

a) jamiyatda nutqning qo'llanishi va uning madaniy jihatlari: *nutq, nutq madaniyati, nutq odobi, nutq uslublari, nutqiy muloqot, nutqiy muomala;*

b) jinslar o'rtasidagi nutqiy farqlar: *ijtimoiy jins, erkaklar nutqi, ayollar nutqi;*

c) tilning hududiy va ijtimoiy qatlamlar bo'yicha bo'linishi: *ijtimoiy lahjalar, hududiy til, oddiy so'zlashuv tili, so'zlashuv tili.*

O'z qatlam terminlari o'zbek tilining tabiiy rivojlanish mahsuli bo'lib, ilmiy nutqning milliy xususiyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularni tizimli ravishda o'rganish va takomillashtirish milliy terminologiya taraqqiyotining muhim bosqichlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Dadaboyev H, Usmonova Sh. Xorijiy sotsiologiya (O'quv qo'llanma). –Toshkent: “Universitet”, 2014. – 135 b.
2. Jo'rayeva B. Sotsiologiya (metodik qo'llanma). – Buxoro : “Sadridin Salim Buxoriy” Durdona, 2019. – 40 b.
3. Usmonova Sh., Bekmuhammedova N., Iskandarova G. Sotsiologiya (O'quv qo'llanma). – Toshkent, 2014. – 85 b.
4. Usmanova Sh. Sharq mamlakatlari sotsiologiyasi (o'quv qo'llanma). – T., 2016. – 164 b.
5. Aliqulov Z., Boymirzaeva S. Sotsiologiya. (ma'ruzalar matni). – Samarqand: SamDU nashri, 2009. – 97 b.
6. Бердиалиев А. Ўзбек синхрон социолінгвістیکаси. Университет ва педагогика олий ўқув юртлири филология факултетларининг ўзбек тили ва адабиёти бакалаври ва магистратура йўналиши учун дарслик-қўлланма. – Хўжанд.: Маърифат, 2015. – 190 б.
7. Ishayev A. O'zbek dialektal leksikografiyasi. – Toshkent: Fan, 2013.
8. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A.va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 1980.
9. Dadaboyev. H. O'zbek terminologiyasi. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – 136 b